

Herald pedagogiki. Nauka i Praktyka

wydanie specjalne



Warszawa
2021

Editorial Team

Editor-in-chief: *Gontarenko N.*

EDITORIAL COLLEGE:

W. Okulicz-Kozaryn, dr. hab, MBA, Institute of Law, Administration and Economics of Pedagogical University of Cracow, Poland;

L. Nechaeva, PhD, PNPU Institute K.D. Ushinskogo, Ukraine.

K. Fedorova, PhD in Political Science, International political scientist, Ukraine.

ARCHIVING

Sciendo archives the contents of this journal in [ejournals.id](#) - digital long-term preservation service of scholarly books, journals and collections.

PLAGIARISM POLICY

The editorial board is participating in a growing community of [Similarity Check System's](#) users in order to ensure that the content published is original and trustworthy. Similarity Check is a medium that allows for comprehensive manuscripts screening, aimed to eliminate plagiarism and provide a high standard and quality peer-review process.

About the Journal

Herald pedagogiki. Nauka i Praktyka (HP) publishes outstanding educational research from a wide range of conceptual, theoretical, and empirical traditions. Diverse perspectives, critiques, and theories related to pedagogy – broadly conceptualized as intentional and political teaching and learning across many spaces, disciplines, and discourses – are welcome, from authors seeking a critical, international audience for their work. All manuscripts of sufficient complexity and rigor will be given full review. In particular, HP seeks to publish scholarship that is critical of oppressive systems and the ways in which traditional and/or “commonsensical” pedagogical practices function to reproduce oppressive conditions and outcomes. Scholarship focused on macro, micro and meso level educational phenomena are welcome. JoP encourages authors to analyse and create alternative spaces within which such phenomena impact on and influence pedagogical practice in many different ways, from classrooms to forms of public pedagogy, and the myriad spaces in between. Manuscripts should be written for a broad, diverse, international audience of either researchers and/or practitioners. Accepted manuscripts will be available free to the public through HPs open-access policies, as well as we planed to index our journal in Elsevier's Scopus indexing service, ERIC, and others.

HP publishes two issues per year, including Themed Issues. To propose a Special Themed Issue, please contact the Lead Editor Dr. Gontarenko N (info@ejournals.id). All submissions deemed of sufficient quality by the Executive Editors are reviewed using a double-blind peer-review process. Scholars interested in serving as reviewers are encouraged to contact the Executive Editors with a list of areas in which they are qualified to review manuscripts.

**TA'LIMNI AXBOROTLASHTIRISH SHAROITIDA BO'LAJAK KASB
TA'LIMI O'QITUVCHILARINI TAYYORLASH METODIKASI**

Radjabova Sanobar Raximovna

O'zDK "Musiqa pedagogikasi" kafedrasи katta o'qituvchisi

**METHODOLOGY OF FUTURE PROFESSIONAL EDUCATION TEACHER
TRAINING IN THE CONTEXT OF EDUCATIONAL INFORMATION**

Radjabova Sanobar Raximovna

Senior Lecturer of the Department of Music Pedagogy, UzSC

Annotatsiya. Ushbu maqolada oliv o'quv yurtlarida ta'limdi axborotlashtirish jarayonida bo'lajak kasb ta'limi o'qituvchilarini kasbga tayyorlash metodikasining zamonaviy usullari, ularda yangi shaxsiy sifat va ko'nikmalarini shakllantirish, o'quv jarayonini takomillashtirish va optimallashtirish yo'llari ochib berilgan.

Kalit so'zlar: ta'lim, axborot, innovatsion, axborotlashgan muhit, innovatsion texnologiyalar, axborot texnologiyalari, masofoviy o'qitish, axborotli o'qitish texnologiyasi.

Abstract. In this article it's revealed that at the process of informatization of the education in higher education institutions, it justifies new personal quality skills and modern spheres of preparing future cadres for the method of profession and the ways of optimizing and developing educational process.

Keywords: education, information, innovation, informative environment, innovative technologies, information technologies, distance learning, distance learning technology.

Аннотация. В этой статье раскрыты современные методы подготовки будущих преподавателей профессионального образования при информатизации обучения в высших учебных заведениях, формирование у них личных качеств и умений, пути усовершенствования и оптимизации учебного процесса.

Ключевые слова: образование, информация, инновационный, информационное пространство, инновационные технологии, дистанционное обучение, информационные обучающие технологии.

Shunisi muhimki, zamonaviy o'qituvchi uchun zarur bo'lgan shaxsiy xislatlarni batafsil ko'rib chiqish kerak. Bular qanday xislatlar ekan?

Ko'pchilik psixologlar, shu bilan birga o'zbekistonlik psixolog olimlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlar zamonaviy o'qituvchilar uchun eng zarur xislatlarni aniqlab olish imkoniyatini beradi. Rossiya psixologlaridan N.V.Kuzmina, V.Slastenin, F.N.Gonobolin, o'zbekistonlik psixologlardan R.Z.Gaynutdinov, M.G.Davletshin, S.Jalilova, A.Jabborov, M.Kapanova va boshqalar tomonidan olib borilgan ilmiy-tadqiqotlar o'qituvchilik



kasbini atroflicha o'rganib, ancha batafsil ko'rsatmalar berish imkoniyatini yaratadi. Bunda gap o'qituvchilik kasbining professiogramma (ma'lum tizimga keltirilgan, mehnat psixologik tomonidan o'rganishga va undan kelgusi amaliy faoliyatda foydalanishga qaratilgan qisqa va har tomonlama batafsil ko'rsatib berilgan hujjatga professiogramma deyiladi). Professiogramma psixologik nuqtai nazardan ishlab chiqarish faoliyati xarakteristikasi (aniq birorta kasb bo'yicha kelgusi amaliy ishlar uchun zarur bo'lgan mazmundagi barcha tomonlarini o'z ichiga olishi kerak) ustida boradi.

O'qituvchi professiogrammasi muayyan fan tomonidan o'qituvchiga qo'yiladigan maxsus talablarni o'z ichiga qamrab olishi lozim. Bo'lajak o'qituvchi u yoki bu xildagi fan tomonidan qanday talablar qo'yilishini bilishi va shu asosida o'quv-tarbiya jarayonini tashkil qilish uchun pedagogika oliy o'quv yurtlarida muayyan mutaxassislik bo'yicha o'qituvchi professiogrammasi ishlab chiqilishi zarurdir.

Darslarga qo'yiladigan didaktik talablar tizimida qo'llaniladigan metodikaning aniq va tushunarli bo'lishi, avvalgi o'tilgan darslar bilan hozirgi darslarning uzviyligi, darsda o'tiladigan mavzuga mos material tanlash, dars o'tishda samarali usul va uslublardan foydalanish, darsni tashkil eta bilish, jamoa, guruh va individual ishlash usullarini umumlashtirish, dars jarayonida har bir o'quvchining individual xususiyatini hisobga olish, musiqa madaniyati darslarini boshqarish, turli xil darslar yordamida darslarning mazmunini boyitish, beriladigan vazifalarni to'g'ri baholash, o'qituvchining darsga tayyorgarligi alohida ahamiyat kasb etadi.

Ta'limdi axborotlashtirish uni isloh qilish va modernizatsiyalashning muhim shartlaridan biri hisoblanadi. Chunki, aynan ta'limgan sohasida nafaqat jamiyatning yangi axborotlashgan muhitini yaratadigan, balki o'zi shu muhitda yashaydigan va ishlaydigan kishilarni tarbiyalanadi va tayyorlanadi. Oliy o'quv yurtlarida ta'limdi axborotlashtirish jarayonining tez sur'at bilan o'sishi shu bilan shartlashilganki, ta'limgan mazmunini uning barcha bosqichlarida yangidan qayta ko'rib chiqish bugungi kunda nafaqat talabalarning kasbiy tayyorgarligiga, balki axborotlashgan jamiyat sharoitida kishilarni hayotga va faoliyatga tayyorlashning sifat jihatdan yangi modelini ishlab chiqish, ularda bu sharoitda zarur bo'ladijan tubdan yangi shaxsiy sifat va ko'nikmalarni shakllantirishga yo'naltirilgan. Shu munosabat bilan nafaqat ta'limgan maqsadini, balki axborotlashgan jamiyat sharoiti va muommalariga yangi mo'ljalni ta'minlab uning mazmunini o'zgartirish zarur. Bu yerda asosiy talablarni bugungi kunda bir tomonidan ta'limdi fundamentallashtirish va gumanitlashtirish, urg'uni axborotni uzatishdan o'rganuvchining kasbiy-shaxsiy rivojlanish jarayoniga va mos texnologiyalarni qidirishga ko'chirish, boshqa tomonidan esa kasbiy faoliyat usuli va predmeti, o'quv fanlarning ilmiy asosi haqidagi o'suvchi borayotgan axborot hajmini uzatish jarayonini texnologik jihatdan takomillashtirish va optimallashtirish bo'lib hisoblangan, mos o'qitish texnologiyalarini topish muhim ahamiyatga ega.

G.I.Saransev fikricha o'qitish texnologiyasi metodik tizim modelini amalga oshirish usullarini ishlab chiqadi va maqsadning tashxislanuvchanligini hamda sharoitni (metodlar, vositalar, shakllar, bog'liklar) aniqlashni ko'zda tutadi [3].

Bugungi kunda ta'limgan texnologiyasini nafaqat o'rganuvchining bilimlarni o'zlashtirish,

balki ularning kasbiy - shaxsiy o'sishini ta'minlovchi o'quv jarayonini qurish texnologiyasi nuqtai qarash zarur. Axborot texnologiyasi esa qayd etilgan talablarga javob beruvchi texnologiya hisoblanadi.

Axborotli o'qitish texnologiyasi - deganda biz ta'lim mazmunini to'ldirish va modifikatsiyalash, xuddi shuningdek o'qitish va tarbiyalashda bo'lajak faoliyat xususiyatlari va mutaxasis kasbiy muhim sifatlariga talablari mos ta'lim maqsadlariga erishishga yo'naltirilgan, axborotli maxsulot va vositalarni joriy qilish asosida pedagogik jarayonni o'zgartirish bo'yicha chora - tadbirlar majmuasini o'z ichiga olgan didaktik jarayonni tushunamiz.

Ta'limda axborot texnologiyasining quyidagi muhim afzalliklaridan samarali foydalanish mumkin:

- har bir individga o'qitishning shaxsiy trayektoriyasini ta'minlovchi, ta'limning ochiq tizimini qurish mumkinligi;
- bilimni tizimli fikrlash tomoniga burish yo'li bilan uni tashkil etish jarayonini tubdan o'zgartirish;
- ta'limning axborot - metodik ta'minotini boshqarishning samarali tizimini yaratish;
- o'quv jarayonining borishida o'rganuvchining bilish faoliyatini samarali tashkil etish;
- ta'limning o'ziga xos quyidagi xususiyatlaridan, ya'ni o'quv jarayonini individuallashtirish, unga faoliyatli yondashuvni qo'llab - quvvatlovchi bilish jarayonini tashkil etish imkoniyatidan foydalanish [2].

Axborot texnologiyalari o'qituvchiga didaktik maqsadga erishish uchun ularni alohida o'quv ishlari ko'rinishiga qo'llash, xuddi shuningdek muammoli-yo'naltirilgan majmua yaratish va o'rgatuvchi muhitni loyihalash imkoniyatini beradi.

Har bir yo'nalish va har bir ixtisoslik bo'yicha ta'lim mazmuniga qo'yilgan umumiy talablar o'z aksini topgan, mos ixtisoslikni olish uchun bo'lajak mutaxasssis egallash lozim bo'lgan umummajburiy bilim, ko'nikma va malakalar aniqlangan mutaxassisni tayyorlashning asosiy ta'limiy dasturi Davlat ta'lim standarti asosida ishlab chiqiladi.

Oliy o'quv yurtlari kasb ta'limi yo'nalishlarida o'quv rejallarda o'qitish ko'zda tutilgan umumkasbiy fanlar bo'lajak kasb ta'limi o'qituvchilarida shaxsiy sifatlarni shakllantirishga kuchli ta'sir ko'rsatadi. Bu sifatlarning barchasi talabalarning tahsil olish jarayonida shakllanadi va uning uchun kasbiy faoliyatini (o'quv-tarbiyaviy, ijtimoiy - pedagogik, ilmiy metodik va tashkiliy -boshqaruvchanlik) muvoffaqiyatli boshqarishda zarur hisoblanadi. Bo'lajak kasb ta'limi o'qituvchisi kasbiy tayyorgarligi zaruriy elementi bo'lib, didaktik jarayonga ijodiy fikrlovchi shaxsni rivojlantirishga yo'naltirilgan, umumiy va axboriy madaniyatining yuqori darajasiga ega bo'lgan, jahon axborot makoniga erkin mo'ljal oladigan va uning resurslaridan o'zi-o'zi mustaqil rivojlantirish uchun foydalanuvchi innovatsion pedagogik va axborot texnologiyalarini qo'llash hisoblanadi.

Oliy o'quv yurtlari talabalarini kasbiy tayyorlashda axborot texnologiyalaridan foydalanishning quyidagi ikki asosiy motivi mavjud:

- 1) axborot texnologiyasini o'quv jarayoniga qo'llash o'quv materialini o'zlashtirish



sifatini oshirishga imkon beradi;

2) axborot texnologiyalari bo'lajak kasb ta'limi o'qituvchilarini axborotlashgan jamiyatdagi hayotga bo'lajak kasbiy faoliyatiga tayyorlaydi.

Shuning uchun ham bugungi kunda oliy o'quv yurtlari kasb ta'limi yo'naliishlari o'quv jarayonida axborot texnologiyalaridan talabalarni o'qitish va rivojlantirish vositasi sifatida foydalanish muammosi o'ta dolzarb hisoblanadi.

Ta'limda axborot texnologiyalari potentsiali o'quv jarayonining ko'p jihatlarida namoyon bo'ladi. Oliy o'quv yurtlari kasbiy ta'lim yo'naliishlarida umumkasbiy fanlarni sifatli o'qitishni axborot texnologiyalaridan foydalanishga majmuaviy yondashuv yordamida ta'minlanish mumkin. Axborot texnologiyalarini tizimli joriy etish o'qitish jarayonining barcha komponentlarini qamrab olishi va shu bilan birgalikda ta'lim mazmuni, uning vositasi va metodlari ta'lim jarayoni sub'yektiga qaratilgan bo'lish kerak. O'quv jarayonida axborot texnologiyalaridan majmuaviy foydalanish nafaqat o'qitishni jadallashtirishga, balki o'quv faoliyatini individuallashtirish va differentialsallashtirish, xususan turli xil faoliyatni maqsadli interatsiyalash imkonini beradi. Bu esa o'z navbatida, o'qitishning barcha sub'yektlaring o'zaro ta'sirlashuvini yangidan tashkil etish uchun imkoniyatini yaratadi.

Axborot texnologiyalaridan foydalanib bo'lajak kasb ta'limi o'qituvchilarini o'qitish texnologiyasi o'qitish shakli va metodlarini o'zgartirish o'quv - metodik majmua yaratish, axborot metodik resursga oson kirish imkoniyatini ta'minlash, o'qitish sifatini boshqarishning kompyuterli tizimini ishlab chiqish hisobiga ma'ruza, amaliy va laborotoriya mashg'ulotlarida, talabalar mustaqil ishni tashkil etishda talabalar va o'qituvchilarning samarali faoliyatini ta'minlashga yo'naltirilgan. O'quv jarayoniga axborot texnologiyasini muvafaqiyatli qo'llash omili bo'lib, o'qituvchining o'quv jarayoni ilmiy-metodik ta'minoti ustida ishlashi hisoblanadi [1].

Oliy o'quv yurtlari kasbiy ta'lim yo'naliishlarida bo'lajak kasb ta'limi o'qituvchilarini tayyorlashning mazmunli jihatini qo'yilgan didaktik maqsadga kafolatli erishishga imkon beruvchi, talaba va o'qituvchiga o'quv va boshqa turdag'i axborotni to'la va adekvat taqdim etish masalasini yechish kontekstida qarash lozim.

Bizning nuqtai nazarimizcha bunday tashkil etuvchi bo'lib, shartli ravishda quyidagi to'rtta tashkil etuvchidan iborat, o'quv fani axborot ta'minotning elektron o'quv - metodik majmua ishtiroy etadi: "axborot - nazariy, amaliy, baholash va nazariy, axborot - ma'lumotli. Ushbu majmua o'qituvchi va talaba o'rtasidagi pedagogik faol axborotli o'zaro ta'sirlashuv uchun asosiy pedagogik dasturiy mahsulotlar, ma'lumotlar bazasi, xuddi shuningdek o'quv jarayonini ta'minlovchi va qo'llab-quvvatlovchi boshqa didaktik vositalar va metodik materiallar integrallashadigan sharoitni Bizning nuqtai nazarimizcha bunday tashkil etuvchi bo'lib, shartli ravishda quyidagi to'rtta tashkil etuvchidan iborat, o'quv fani axborot ta'minotning elektron o'quv - metodik majmua ishtiroy etadi: "axborot - nazariy, amaliy, baholash va nazariy, axborot - ma'lumotli. Ushbu majmua o'qituvchi va talaba o'rtasidagi pedagogik faol axborotli o'zaro ta'sirlashuv uchun asosiy pedagogik dasturiy mahsulotlar, ma'lumotlar bazasi, xuddi shuningdek, o'quv jarayonini ta'minlovchi

va qo'llab-quvvatlovchi boshqa didaktik vositalar va metodik materiallar integrallashadigan sharoitni yaratishga mo'ljallangan didaktik tizimni o'z ichiga oladi. Umumkasbiy fanlar bo'yicha yaratiladigan majmua tarkibi va tuzilmasi u ishlab yaratishga mo'ljallangan didaktik tizimni o'z ichiga oladi. Axborot texnologiyalaridan foydalanish maqsadi-nafaqat kasbiy bilim va ko'nikmaga erishish, balki talabani rivojlantirish, axborotlashgan jamiyatda mustaqil mahsuldor faoliyatga tayyorlash, ijodiy fikrlashni, tadqiqotchilik faoliyati ko'nikmalarini rivojlantirish maqsadi ham bo'lish kerak.

Foydalilanilgan adabiyotlar:

- 1.Zaxarova I. G. Informatsionniye texnologii v obrazovaniye. M.: Izdatelskiy tsentr "Akademiya", 2005.
- 2.Semenova N.G. Sozdaniye i primenenie multimedeynogo programmno metodicheskogo kompleksa v obrazovatelnom protsesse // Vestnik OGU. - 2004, - № 1. - S. 23-29.
- 3.Sarantsev G.I. Metodika obucheniya matematike v sredney shkole. - M.: Prosvesheniye, 2002



SSRN

 **ELSEVIER**